

“TURONBANK” AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
BOSHQARUV MAJLISINING BAYONI

Toshkent shahri
Abay ko‘chasi 4a-uy.

Majlis ishtirokchilar soni: 6 kishi.

Majlis Raisi: “Turonbank” ATB Boshqaruv Raisi v.b. Ch.S.Mirzayev.

Boshqaruv a‘zolari: S.T.Kaldibayev, D.A.Rustamov, T.X.Axmedov, Z.Obidov, A.A.Muazzamov.

Kvorum: 100%.

Majlis kotibi: Sh.T.Azimova.

MAJLIS KUN TARTIBI

“Turonbank” ATB tizimida 2026 yil 1-yanvar holatiga “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablarining ijrosi to‘g‘risida

2026 yil 1-yanvar holatiga “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining ijrosini ta‘minlash yuzasidan “Turonbank” ATB tizimida amalga oshirilgan ishlarning natijalari tahlil qilindi.

“Turonbank” ATB tizimiga 2025 yil davomida jismoniy va yuridik shaxslardan **859 ta** murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, o‘tgan yilga (2024 yil davomida 850 ta) nisbatan **9 taga** (1,1%) ortganligini ko‘rsatmoqda.

Tahlilga ko‘ra murojaatlarning **639 tasi** (74,4%) - elektron, **121 tasi** (14,1%) - yozma hamda **99 tasi** (11,5%) - og‘zaki shakldagi murojaatlardir.

Shu bilan birga 2025 yil davomida “Turonbank” ATB tizimiga kelgan murojaatlarning BXMLar kesimida tahlillari Bosh ofis – **148 ta** (17,2%), Surxondaryo BXM - **77 ta** (9,0%), Toshkent shahar BXM – **61 ta** (7,1%), Jizzax BXM - **57 ta** (6,6%), Farg‘ona BXM – **50 ta** (5,8%), Navoiy BXM - **49 ta** (4,7%), Qarshi BXM - **48 ta** (5,6%), Buxoro BXM - **47 ta** (5,5%), Andijon BXO - **40 ta** (5,9%), Namangan BXM - **37 ta** (4,3%), Shahrisabz va Zangiota BXMlarga **33 tadan** (3,8%dan), Guliston BXM - **30 ta** (3,5%), Qoraqalpog‘iston BXM – **26 ta** (3,0%), Samarqand BXM - **24 ta** (2,8%), Mirzo Ulug‘bek va Yashnobod BXOlar - **21 ta** (2,4%), Xorazm BXM - **18 ta** (2,1%), Chilonzor BXO – **15 ta** (1,7%), Yunusobod BXO - **13 ta** (1,5%), Mirobod BXO - **9 ta** (1,0%) hamda Bulung‘ur BRM - **2 ta** (0,2%) murojaatlar kelib tushganligini ko‘rsatdi.

“Turonbank” ATB tizimiga kelgan murojaatlarning asosiy qismi **Bosh ofis** (148 ta, 17,2%), **Surxondaryo BXM** (77 ta, 9,0%), **Toshkent shahar BXM** (61 ta, 7,1%), **Jizzax BXM** (57 ta, 6,6%) hamda **Farg‘ona BXM** (50 ta, 5,8%) mijozlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, hisobot davrida jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlar soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan tahlil qilinganda Toshkent shahar BXM - **31** taga, Buxoro BXMda – **18** taga hamda Jizzax BXMda - **13** taga ortgan. Bu esa mazkur BXMLar tomonidan murojaatlar bilan ishlash ustidan tizimli nazorat o'rnatish hamda murojaatlarni keltirib chiqarayotgan omillarni bartaraf etish borasida zarur choralar ko'rish lozimligini ko'rsatmoqda.

Kelib tushgan murojaatlar yo'nalishlar kesimida o'rganilganda Chakana biznes departamentiga **256** ta (29,8%), Muammoli aktivlar bilan ishlash departamentiga **153** ta (17,8%), Operatsion departamentiga **90** ta (10,5%), Bank karta tizimlarini qo'llab quvvatlash departamentiga **86** ta (10,0%), Kichik va o'rta biznes departamentiga **84** ta (9,8%), Xodimlarni boshqarish (HR) departamentiga **45** ta (5,2%), Ijro nazorati departamentiga **39** ta (4,5%), Ichki audit departamentlariga **31** ta (3,6%), Davlat dasturlari bilan ishlash departamentiga **23** ta (2,7%), Monitoring va nazorat (middle-office) departamentiga **20** ta (2,3%), Bank yuridik xizmatiga **12** ta (1,4%), Ma'muriy xo'jalik boshqarmasi va Filial tarmoqlarini boshqarish departamentiga **5** tadan (0,6%dan), Korporativ biznes departamentlariga **3** ta (0,3%), Komplayens nazorat, Buxgalteriya hamda Axborot texnologiyalari departamentlariga **2** tadan (0,2%dan), Mijozlar servisi va marketing departamentiga **1** ta (0,1%) murojaat to'g'ri kelgan.

Murojaatlarni ko'rib chiqish natijasi tahlillari jami murojaatlarning **72,4%** (622 tasi) ijobiy hal etilganligini, **18,3%** (157 tasi) tushuntirish berilganligini, **3,5%** (30 tasi) rad etilganini, **4,3%** (37 tasi) ko'rmasdan qoldirilganini yoki ko'rib chiqish tugatilganligini va **1,5%** (13 tasi) ko'rib chiqish jarayonida ekanligini ko'rsatdi.

Kelib tushgan jami murojaatlarning **126 tasi** (14,7%) 1-3 kungacha, **190 tasi** (22,1%) 4-7 kungacha, **277 tasi** (32,2%) 8-12 kungacha, **172 ta** (20,0%) 13-15 kungacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilgan hamda **13 ta** (1,5%) murojaatlar ko'rib chiqish jarayonida, shundan **78 ta** (9,1%) murojaatlar muddatlari uzaytirilib, **16-30 kungacha** bo'lgan, **3 ta** (0,3%) 30 kunlik muddatini o'tkazib ko'rib chiqilgan.

Murojaatlarning ko'rib chiqilishida Chakana xizmat ko'rsatish hamda Muammoli aktivlar bilan ishlash masalasida **17 tadan**, Ijro nazorati masalasida **16 ta**, Kichik va o'rta biznes va Xodimlar bilan ishlash masalalarida **5 tadan**, Operatsion, Bank yuridik, Ma'muriy xo'jalik masalalarida **3 tadan**, Bank kartalari, Ichki audit va Davlat dasturlari bo'yicha **2 tadan** va Monitoring, Buxgalteriya hamda Axborot texnologiyalari masalasida **1 tadan** murojaatlar qonunchilikda belgilangan **15 kun muddatni** o'tkazib, qo'shimcha muddat olib ijrosi taminlangan. Ta'kidlab o'tish lozimki Muammoli aktivlar, Kichik biznes hamda Xodimlar bilan ishlar masalalarida **1 tadan** murojaat qonunchilikda belgilangan 15 kunlik muddat va uzaytirilgan taqdirda 30 kunlik muddatdan o'tkazib ijrosi ta'minlangan.

Qonunchilikda belgilangan 15 kun muddatni o'tkazib, qo'shimcha muddat olib murojaat hal etilishi hollari BXMLar tomonidan murojaatlar o'z vaqtida nazoratga olinmaganligi, tegishli suhbat bayonlari kechiktirib taqdim etilayotganligi hamda javob xatlari, suhbat bayonlarini yuzaki va yuqori turuvchi tashkilotlar talablariga zid ravishda rasmiylashtirish natijasida yuzaga kelmoqda. Bu esa o'z navbatida murojaatlarni qayta ko'rib chiqish uchun qaytarilishiga va ijro muddati cho'zilishiga sabab bo'lmoqda.

Murojaatlarni qonuniy hal qilmagan, murojaatlar bilan ishlashda kamchiliklarga yo'l qo'ygan rahbar va xodimlarga nisbatan qonunchilikka muvofiq tegishli choralar ko'rilgan. 2025 yil davomida mijozlarning haqli etiroziga sabab bo'lgan **3 nafar** bank xodimlariga xususan, Yunusobod, Mirzo Ulug'bek va Andijon BXOlarda **1 nafardan** xodimlarga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llanilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali kelgan murojaatlar to‘g‘risida ma’lumotlar “Turonbank” ATBga 2025 yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti virtual qabulxonasi orqali jami **615 ta** murojaatlar kelib tushgan.

BXMLar kesimida murojaatlar kelib tushishi quyidagicha Bosh ofisga – **71 ta** (8,3%), Surxondaryo BXMga – **67 ta** (7,8%), Toshkent shahar BXMga – **47 ta** (5,5%), Farg‘ona BXMga – **45 ta** (5,2%), Jizzax va Navoiy BXMlarga – **40 tadan** (4,7%dan), Buxoro BXMga – **34 ta** (4,0%), Qarshi BXM va Andijon BXOga – **29 tadan** (3,4%dan), Zangiota BXMga – **26 ta** (3,0%), Namangan BXMga – **23 ta** (2,7%), Shahrisabz BXMga – **21 ta** (2,4%), Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Samarqand BXMlarga – **20 tadan** (2,3%dan), Guliston BXM va Yashnobod BXOga – **18 tadan** (2,1%dan), Mirzo Ulug‘bek BXOga – **17 ta** (2,0%), Xorazm BXMga – **16 ta** (1,9%), Chilonzor BXOga – **14 ta** (1,6%), Yunusobod BXOga – **11 ta** (1,3%), Mirobod BXOga – **8 ta** (0,9%) hamda Bulung‘ur BRMga – **1 ta** (0,1%) murojaatlar kelib tushganligini ko‘rish mumkin.

Murojaatlar yo‘nalishi bo‘yicha Chakana biznes departamentiga – **181 ta** (21,1%), Muammoli aktivlar bilan ishlash departamentiga – **127 ta** (14,8%), Bank karta tizimlarini qo‘llab-quvvatlash departamentiga – **64 ta** (7,5%), Operatsion departamentga – **58 ta** (6,8%), Kichik va o‘rta biznes departamentiga – **47 ta** (5,5%), Xodimlarni boshqarish (HR) departamentiga – **37 ta** (4,3%), Ichki audit va Davlat dasturlari bilan ishlash departamentlariga – **22 tadan** (2,6%dan), Ijro nazorati departamentiga – **19 ta** (2,2%), Monitoring va nazorat qilish departamentiga (Middle Office) – **18 ta** (2,1%), Bank yuridik xizmatiga – **7 ta** (0,8%), Ma‘muriy xo‘jalik boshqarmasiga – **4 ta** (0,5%), Filial tarmoqlarini boshqarish departamentiga – **3 ta** (0,3%), Korporativ biznes va Axborot texnologiyalari (IT) departamentlariga – **2 tadan** (0,2%dan), Buxgalteriya hisobi hamda Mijozlar servisi va marketing departamentlariga – **1 tadan** (0,1%dan) murojaat kelib tushgan.

O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlar virtual ofisi axborot portali orqali kelgan murojaatlar to‘g‘risida ma’lumotlar Bank tizimiga 2026 yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi Tadbirkorlar virtual ofisi axborot portali orqali jami **5 ta** murojaatlar kelib tushgan.

BXMLar kesimida quyidagicha Surxondaryo va Shahrisabz BXMlarga – **2 tadan** (0,2%dan) hamda Navoiy BXMga – **1 ta** (0,1%) murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlar yo‘nalishlar bo‘yicha Chakana biznes va Muammoli aktivlar bilan ishlash departamentiga – **2 tadan** (0,2%dan) hamda Kichik va o‘rta biznes departamentiga – **1 ta** (0,1%) murojaatlar kelib tushgan.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi “Ishonch telefoni” orqali kelgan murojaatlar to‘g‘risida ma’lumotlar Bank tizimiga 2025 yil davomida Bosh Prokuratura “Ishonch telefoni” orqali jami **15 ta** murojaatlar kelib tushgan.

BXMLar kesimida quyidagicha Surxondaryo BXMga – **4 ta** (0,5%), Jizzax, Navoiy, Shahrisabz BXMLariga va Andijon BXOga – **2 tadan** (0,2%dan), Farg‘ona, Namangan BXMLariga hamda Bulung‘ur BRMga – **1 tadan** (0,1%dan) murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlar yo‘nalishlar bo‘yicha Chakana biznes departamentiga – **10 ta** (1,2%), Muammoli aktivlar bilan ishlash departamentiga – **4 ta** (0,5%) hamda Kichik va o‘rta biznes departamentiga – **1 ta** (0,1%) murojaat kelib tushgan.

“Turonbank” ATB Boshqaruviga kelgan yozma murojaatlar to‘g‘risida ma’lumotlar “Turonbank” ATB Boshqaruviga 2025 yil davomida jami **111 ta** yozma murojaat kelib tushgan.

BXMLar kesimida quyidagicha Bosh ofisga – **71 ta** (8,3%), Jizzax BXMga – **6 ta** (0,7%), Navoiy BXMga – **5 ta** (0,6%), Toshkent shahar BXMga – **4 ta** (0,5%), Buxoro, Guliston BXMLariga va Mirzo Ulug‘bek BXOga – **3 tadan** (0,3%dan), Surxondaryo, Farg‘ona, Samarqand BXMLariga va Andijon BXOga – **2 tadan** (0,2%dan) hamda Qarshi, Shahrisabz, Yashnobod, Xorazm, Chilonzor va Yunusobod BXM/BXOlariga – **1 tadan** (0,1%dan) murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlar yo'nalishlar bo'yicha Chakana biznes va Operatsion departamentlariga – **25 tadan** (2,9%dan), Bank karta tizimlarini qo'llab-quvvatlash departamentiga – **17 ta** (2,0%), Muammoli aktivlar bilan ishlash departamentiga – **15 ta** (1,7%), Kichik va o'rta biznes departamentiga – **9 ta** (1,0%), Bank yuridik xizmatiga – **5 ta** (0,6%), Xodimlarni boshqarish (HR) departamentiga – **3 ta** (0,3%), Monitoring va nazorat qilish (Middle Office) departamentiga – **2 ta** (0,2%) hamda Ichki audit departamenti, Komplaens nazorat departamenti va Ma'muriy xo'jalik boshqarmalariga – **1 tadan** (0,1%dan) murojaatlar kelib tushgan bo'lib, barchasiga javob xatlari yuborilgan.

“Turonbank” ATB “Ishonch telefoni” orqali kelgan murojaatlar to'g'risida ma'lumotlar “Turonbank” “Ishonch telefoni” orqali bank tizimiga 2026 yil 1 yanvar holatiga jami 24 ta murojaat kelib tushgan.

BXMLar kesimida quyidagicha Qarshi va Buxoro BXMLariga – **3 tadan** (0,3%dan), Bosh ofis, Farg'ona, Andijon, Namangan va Samarqand BXMLariga – **2 tadan** (0,2%dan), Surxondaryo, Toshkent shahar, Xorazm, Jizzax BXMLariga hamda Yashnobod, Yunusobod, Mirobod BXOlariga va Bulung'ur BRMga – **1 tadan** (0,1%dan) murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlar yo'nalishlar bo'yicha Chakana biznes departamentiga – **6 ta** (0,7%), Operatsion departamentga – **5 ta** (0,6%), Bank karta tizimlarini qo'llab-quvvatlash va Xodimlarni boshqarish (HR) departamentlariga – **4 tadan** (0,5%dan), Muammoli aktivlar bilan ishlash departamentiga – **2 ta** (0,2%) hamda Kichik va o'rta biznes departamenti, Ichki audit departamenti va Filial tarmoqlarini boshqarish departamentlariga – **1 tadan** (0,1%dan) murojaatlar kelib tushgan bo'lib barchasiga javob xatlari yuborilgan.

“Turonbank” ATB Rahbariyat sayyor qabuli orqali kelgan murojaatlar to'g'risida ma'lumotlar “Turonbank” ATB Rahbariyat sayyor qabuli orqali bank tizimiga 2026 yil 1-yanvar holatiga jami 75 ta murojaat kelib tushgan.

BXMLar kesimida quyidagicha Qarshi BXMga – **15 ta** (1,7%), Namangan BXMga – **10 ta** (1,2%), Jizzax va Guliston BXMLarga – **8 tadan** (0,9%dan), Toshkent shahar va Zangiota BXMLarga – **7 tadan** (0,8%dan), Qoraqalpog'iston BXMga – **6 ta** (0,7%), Buxoro va Shahrisabz BXMLarga – **5 tadan** (0,6%dan) hamda Andijon BXOga – **4 ta** (0,5%) murojaatlar kelib tushgan.

Murojaatlar yo'nalishlar bo'yicha Chakana biznes departamentiga – **29 ta** (3,3%), Kichik va o'rta biznes departamentiga – **25 ta** (2,8%), Ijro nazorati departamentiga – **20 ta** (2,3%) hamda Korporativ biznes departamentiga – **1 ta** (0,1%) murojaatlar kelib tushgan bo'lib barchasiga javob xatlari yuborilgan.

“Turonbank” ATBda murojaatlarni ko'rib chiqish borasidagi ishlarni tizimli tashkil etish hamda mas'ul rahbar va xodimlar mas'uliyati hamda javobgarligini yanada oshirish maqsadida,

Boshqaruv qaror qiladi:

1. “Turonbank” ATB tizimida jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar va ular bilan ishlashning ahvoli to'g'risida Ijro nazorati departamenti direktori Q.Po'latovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Murojaatchilar tomonidan ko'tarilgan masalalarning o'z vaqtida hal etilmasligi sababli ularning yuqori tashkilotlarga murojaat qilishi holatlariga yo'l qo'ygani hamda bu borada xodimlarning shaxsiy mas'uliyatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratmaganligi uchun **Surxondaryo** (*E.Xo'janazarov*), **Toshkent shahar** (*R.Maxmudov*), **Jizzax** (*A.Muxammadiyev*), **Farg'ona** (*Sh.Abdullayev*), **Navoiy** (*G'.Nusratov*), **Qarshi** (*N.Tursunov*) va **Buxoro** (*F.Asadov*) BXMLari rahbarlari qat'iy ogohlantirilsin.

3. Chakana biznes departamenti (**A.Talipov**), Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti (**Z.Boboyev**) hamda Operatsion departamenti (**D.Nazarova**) mutasaddilik qilayotgan masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari salmog'i yuqoriligi, murojaatlarda ko'tarilgan tizimli muammolar uzil-kesil hal bo'lmayotganligi, yetarli darajada tizimli nazorat tashkil etilmaganligi va talabchanlik susaytirib yuborilganligi **qayd etilsin**.

4. Boshqaruv raisi o'rinbosarlari (*S.Kaldibayev, D.Rustamov, T.Axmedov va Z.Obidov*) zimmasiga:

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini tarkibiy bo'linmalar va BXMLar tomonidan qonunchilikda **belgilangan muddatda sifatli ko'rib chiqilishi qat'iy nazoratga olish**;

tarkibiy bo'linmalar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish holatini **har oy yakunida tegishli departamentlar ishtirokida tahlil qilib borish**;

murojaatlarni keltirib chiqarayotgan omillar va sabablarni chuqur tahlil qilish hamda **tizimli muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish choralari ko'rish vazifalari yuklansin**.

5. Tarkibiy bo'linmalar rahbarlari zimmasiga:

kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq asoslantirilgan javoblarni belgilangan muddatlarda tayyorlash hamda Bank xizmatlari iste'molchilari huquqini himoya qilish bo'limiga taqdim etish;

kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish holatini har kun yakunida tahlil qilib borish;

har oy yakunida murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli Boshqaruv raisi o'rinbosariga taqdim qilish va ushbu masala bo'yicha muhokamalarni tashkil qilish;

murojaatlarda ko'tarilgan tizimli muammolarning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni hal etish bo'yicha bank Boshqaruviga takliflar kiritib borish **vazifalari yuklansin**.

6. Bank xizmatlari markazlari rahbarlari zimmasiga:

jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qilish, ularning murojaatlarini qonunchilikda belgilangan muddatda ko'rib chiqishni ta'minlash va ushbu masalada nazoratni yanada kuchaytirish;

jismoniy va yuridik shaxslardan tushayotgan murojaatlar soni ortishi sabablarini o'rganish va ularni bartaraf etish, mijoz va bank o'rtasida yuzaga kelayotgan muammolarni joyida hal etish maqsadida mijozlar ishtirokidagi telegramm botlarda berilayotgan savol, taklif, tavsiya va shikoyatlarni mas'uliyat va tezkorlik bilan ko'rib chiqilishini ta'minlash;

joylarda mavjud muammolarni aniqlash, ularni o'z vaqtida bartaraf etish, murojaatlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmasi hamda tegishli mutaxassislar bilan birgalikda qishloq va mahalla fuqarolari yig'inlarida muntazam ravishda sayyor uchrashuvlar tashkil etish va mazkur uchrashuvlarda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ko'tarilgan masalalarni amaldagi qonunchilikka muvofiq hal etish choralari ko'rish;

kelgusida jismoniy va yuridik shaxslarning yozma, og'zaki va elektron ko'rinishdagi murojaatlari ko'payishini oldini olish maqsadida qabulga yozilgan fuqarolar, BXMGa kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini kunlik tahlil qilib borish;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda qonunchilikda belgilangan talablarni buzgan, xususan kelib tushgan murojaatlarni ro'yxatga olmaslik, qabul qilish va ko'rib chiqishni qonunga xilof ravishda rad etish, ko'rib chiqish muddatlarini uzrli sabablarsiz buzish, yozma yoki elektron shaklda javob yubormaslik kabi qoidabuzarliklarga yo'l qo'ygan bank xodimlariga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod qilishgacha bo'lgan choralar ko'rish **vazifalari yuklansin**.

7. Ijro nazorati departamenti (Q.Po'latov), Murojaatlar bilan ishlash boshqarmasi (O.Anarbayev) zimmasiga:

tarkibiy bo'linmalar tomonidan amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq ijobiy hal etish yoki istisno qilish imkoniyati mavjud bo'lmagan murojaatlarga qonuniy va to'liq asoslantirilgan javoblarni belgilangan muddatlarda yuborilishini nazorat qilish;

chorak yakunlari bo'yicha bank tizimiga kelib tushgan murojaatlar ijrosi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar tayyorlash va bank Boshqaruvi muhokamasiga kiritish;

BXMIlarga chiqqan holda jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ko'rib chiqilishi holatini o'rganib borish va yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni joyida bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiyalar berish **vazifalari yuklansin.**

8. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari v.b. S.Kaldibayev, Boshqaruv raisi o'rinbosarlari v.b. D.Rustamov, T.Axmedov va Z.Obidov zimmasiga yuklansin.

Boshqaruvi Raisi v.b.
Ch.S.Mirzayev



A'zolar:

S.T.Kaldibayev



D.A.Rustamov



T.X.Axmedov



Z.S.Obidov



A.A.Muazzamov



Taklif qilinganlar:

B.B.Baymuxamedov

Huquqiy ekspertiza: "Bank
yuridik xizmati" Boshliq
o'rinbosari



Q.I.Po'latov

Kelishildi: "Ijro nazorati
departamenti" Departament
direktori



Sh.T.Azimova

Kirituvchi kotib: bosh
mutaxassis (Boshqaruv kotibi)

